

## ZARKOKIL MALIKA (Chexiya xalq ertagi)

Bor ekan, yo‘q ekan, qaysidir bir mamlakatda zolim va ezma qirol yashagan ekan. Bir kuni qirol saroyiga allaqanday chayqovchi ayol savatda yangina baliq olib kelib:

-Manavi baliqni xarid qil, qirol, keyin xursand bo‘lasan, — debdi.

Qirol baliqqa nigoh tashlab qo‘yarkan:

-Saltanatimda bunday baliq ko‘rmagandim, zaharli baliq emasmi? — debdi.

-Zinhor, — debdi chayqovchi ayol. — Baliqni qovurishga amr et, uni yesang, shu zahoti barcha hayvon, baliq va parrandalarning tilini tushunadigan bo‘lasan. Hatto jajji qo‘ng‘iz pishillasa ham u nima xohlashini bilasan. Dunyodagi eng dono qirolga aylanasan.

Hukmronga bu gap xush yoqibdi. U qurumsoq va ziqlaligiga qaramay savdolashib ham o‘tirmay, baliqni ayol aytgan narxga sotib olibdi.

«Ana endi dunyodagi eng dono qirolga aylanib, butun jahonga hukmron bo‘laman, — deb o‘ylay boshlabdi qirol qoqsuyak qo‘llarini bir-biriga ishqalab. — Hamma menga qaram bo‘ladi-ku! Dushmanlarim qon yig‘laydi endi».

Shundan so‘ng qirol yosh xizmatkori Irjikni chaqirtirib, tushlikka baliq qovurishni buyuribdi.

-Qo‘lingni tekkiza ko‘rma baliqqa! — debdi hukmron Irjikka. — Ozginasini yesang ham kallangni olaman.

Irjik baliqni oshxonaga keltirib, u yoq-bu yog‘iga qarab, battar taajjublanibdi, u umri bino bo‘lib bunaqa baliqni ko‘rmagan ekan. Baliqning tangalari turli rangda tovlanib, xuddi kamalakka o‘xsharkan. Hayf-ku axir bunday baliqni qovurish. Ammo qirolning amriga shak keltirib bo‘larkanmi?

Irjik baliqni qovurayotib pishgan-pishmaganini sira bilolmabdi. Baliq hech qizarmas, kumur- kumur tus olmas, aksincha, tobora tovlanib borayotgan ekan. «Kim bilsin, pishdimi yo yo‘qmi, — dob o‘ylabdi Irjik. — Baribir tatib ko‘rmasa bo‘lmaydi».

Xizmatkor shunday xayol bilan baliqdan ozgina tatib ko‘ribdi: ha, pishganga o‘xshaydi. Ammo og‘ziga olgan luqmani chaynagani sayin nozik ovoz eshitila boshlabdi:

-Bizga ham ozroq! Bizga ham ozroq! Qovurilgan baliqdan!

Irjik atrofga alanglabdi. Lekin hech kim ko‘rinmabdi. Qovurilayotgan baliq ustida pashshalar uchib yurarkan, xolos.

-E, ha! — deb qo‘yibdi ichida Irjik. — Bu baliqning sirini endi bildim.

Shundan keyin xizmatkor baliqni idishi bilan olib, tezroq sovusin deb deraza rahidagi yelvizakka qo‘yibdi. Shu payt hovlida g‘ozlar g‘og‘olab tebrana-tebrana o‘tib borayotgan ekan. Irjik parrandalar ovoziga quloq solsa, ulardan biri shunday deyotgan mish:

-Qayoqqa ketyapmiz? Qayoqqa boramiz?

Boshqasi bunga javob qaytararmish:

-Tegirmon yonidagi arpapoyaga boramiz! Tegirmon yonidagi arpapoyaga boramiz!

-E, ha, — deb qo‘yibdi Irjik kulimsirab. — Bu qanaqa baliqligini endi tushundim. Bir burdasini yeganim kamlik qildi.

Shunday deya u baliqdan yana ozroq yeb, qolganini idishga chiroyli qilib suzibdi-da, ustiga ukrop bilan kashnich urug‘i sepib, qirol huzuriga olib kiribdi.

Shu-shu Irjik hayvonlar tilini yaxshi tushunadigan bo‘lib qolibdi. Hayvonlarning hayot kechirishi odamlar o‘ylaganday yengil emas ekan. Endi xizmatkor hayvonlarga achinar, agar biror hayvon ko‘makka muhtoj bo‘lsa, darhol yordamga shoshilar ekan.

Tushdan keyin qirol ikkita otni egarlabdi-da, Irjikni olib saroya yo‘l olibdi.

Qirol bilan xizmatkor oldinma-keyin ketib borisharkan. Irjik mingan otni bazo‘r boshqararkan. Ot kishnagan ekan, Irjik uning ma’nosini darhol tushunibdi: «Hoy, birodar, ke, yelaylik-da, bir hamlada anavi tog‘ni oshib o‘taylik».

-Koshkiydi-ya, — deb javob qaytaribdi bunga qirolding oti, — afsus, ustimda qari tentak o‘tiribdi. Yiqilib, mayib bo‘lishi mumkin. Yaxshi bo‘lmaydi-da, ming qilsa ham u qirol.

-Mayib bo‘lsa bo‘lavermaydimi, — debdi Irjikning tulpori. — Unda o‘sha cholni emas, yosh qirolni mindirib yurasan.

Irjik asta kulib qo‘yibdi. Biroq qirol ham otlarning suhbatini tushunib turarkan. U xizmatkoriga yuzlanibdi-da, uning oti biqiniga etigi bilan niqtab, Irjikdan so‘rabdi:

-Nega kulding, ko‘rnamak?

-Bugun ertalab oshxonada ikkita oshpaz ayol bir-birining sochini yulganlarini eslab kulayapman, oliy hazratlari.

-Ko‘p ham haddingdan oshaverma! — po‘pisa qilibdi qirol.

Hukmdor Irjikning vajiga ishonmabdi albatta, u jilovni jahl bilan siltab, qarorgohiga ot qo‘yib ketibdi. Saroyda Irjikka qadah to‘ldirib musallas quyishni buyuribdi.

-Ehtiyyot bo‘l, musallasni to‘ldirmay quysang ham, toshirib yuborsang ham naq kallangni olaman.

Irjik xumni olibdi-da, sopol qadahga avaylab musallas quya boshlabdi. Shu payt ochiq derazadan ikkita chumchuq uchib kiribdi. Qushlar ichkarida parvoz qilayotib, bir-biri bilan pat-pat urisha boshlabdi. Chumchuqlardan birining tumshug‘ida uchta tilla tola bo‘lib, ikkinchi chumchuq o‘sha tolalarni tortib olmoqchi bo‘larkan.

-Ber! Bu yoqqa ber! Mening tolalarim-ku! O‘g‘ri!

-Bermayman! Men bu tolalarni zebo malika tilla sochini tarayotganida ilib olganman. Bunday tolalar dunyoda tanho, bermayman! Zebo malika tekkan odam dunyoda eng baxtiyor inson bo‘ladi.

-Ber! Uringlar o‘g‘rini!

Chumchuqlar shu zayl bir-birlariga chug‘ur-chug‘ur qilgancha tashqariga otilishibdi. Ammo tilla tolalaridan biri tumshuqdan pastga tushib kotib, tosh yotqizilgan yerga urilib qo‘ng‘iroqday ovoz chiqaribdi-yu, Irjik alahsib... musallasni to‘kib yuboribdi.

-Ajab bo‘ldi! — xitob qilibdi qirol. — Endi jongingdan umidingni uzaver!

Qirol xizmatkorining musallas to‘kib yuborganidan qanchalik xursand bo‘lganini aytib o‘tirmasa ham bo‘ladi, chunki undan qutulish uchun Imndan yaxshi bahona bormi? Axir u dunyoda tanho o‘zi dono bo‘lib qolishni xohlarkan-da. Kim bilsin, xizmatkor qovurilgan baliqdan tatib ko‘rgan ham bo‘lishi mumkin. U holda Irjik qirol uchun eng xatarli raqibga aylanadi. Shu payt hukmdorning xayoliga aqli bir fikr kelib qolibdi. U yerda yotgan tilla tolani olibdi-da, uni Irjikka uzata turib, shunday debdi:

-Xo‘p, mayli, bir qoshiq qoningdan kechdim. hekin sen buning evaziga tilla soch tushirgan qizni topib, menga qayliq qilib saroyimizga keltirasan. Tolani ol-da, yo‘lga tush. Qizni qidir!

Irjik nima ham qilardi? Noiloj tilla tolani olib, otini minib, yo‘lga tushibdi. Ammo qaysi tomonga yo‘l olishni bilmabdi. Yigit yuganini bo‘sh qo‘yibdi-yu, ot zim-ziyo yo‘ldan yelib ketibdi. Chor-atrof changalzor ekan. Bu yo‘lga ko‘pdan beri inson qadami tegmaganga o‘xsharkan. Bir vaqt Irjik changalzorning chekkasidagi quruq butalar yonayotganini ko‘rib qolibdi. Podachilar gulxan yoqib, ketishda o‘chirmagan bo‘lishsa kerak. Butalarning ostida esa chumoli ini bor ekan. Bechora chumolilar u yoqdan bu yoqqa zir yugurib inlariga yiqqan bisotlarini — tuxumchalar, qovjiroq hasharotlar, donlarni tashish bilan ovora ekan. Irjik chumolilarning faryodini ham eshitibdi:

-Yordam ber, Irjik! Qutqar bizni! Yonayapmiz!

Irjik otdan sakrab tushib, bir butani sindiribdida, olovni o‘chiribdi. Chumolilar uni qurshab olib, mo‘ylablarini o‘ynatib tashakkur bildira boshlashibdi:

-Umringdan baraka top, Irjik. Bu yaxshilingning umrbod unutmaymiz. Biror ko‘mak zarur bo‘lib qolsa, doim tayyormiz. Yaxshilingning hech qachon unutmaymiz.

Irjik qop-qorong‘i changalzorga kirib, qandaydir jonivorning chirq-chirq yozg‘irayotganini eshitib qolibdi. Bu baland archadagi indan qulab tushgan bir juft qarg‘a poloponlari ekan. Poloponlar og‘izlarini kappa-kappa ochib, iltijo qilisharkan:

-Yordam ber, Irjik! Qornimizni to‘ydir! Ochdan o‘lamiz! Ota-onamiz uchib ketishdi, biz hali ucholmaymiz.

Qirol Irjikka jo‘rttaga qirchang‘i otni bergen ekan. Qirchang‘i bazo‘r oyoqda turar, dir-dir titrarkan. Olis safarga yaray olarmidi.

Irjik otdan sakrab tushib, picha o‘ylanib turibdi-da, keyin shartta otni so‘yibdi, bir nimtasini qarg‘a poloponlariga beribdi.

-Rahmat, Irjik, rahmat! — chirqillab debdi poloponlar. — Biz bu yaxshilicingni javobsiz qoldirmaymiz.

Irjik safarini piyoda davom ettiribdi. U zimiston o‘rmonda yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. O‘rmonning shovullashi kuchayib, avjga minibdi. Daraxt uchlari yer baravar egila boshlabdi. Bir vaqt o‘rmon shovqiniga to‘lqinlarning shovullashi ham qo‘shilibdi. Irjik dengiz sohiliga chiqib qolibdi. Sohildagi qum ustida ikki baliqchi bahslashib o‘tirisharkan. Baliqchilardan birining to‘riga oltin baliq ilingan bo‘lib, ikkinchi baliqchi o‘sha baliqni menga berasan deb da’vo qilib turgan ekan.

-To‘r meniki bo‘lgandan keyin, baliq ham meniki bo‘ladi-da! — derkan baliqchilardan biri.

-Xo‘sh, qayiq kimniki? — derkan ikkinchi baliqchi. — Mening qayig‘im bo‘lmasa, to‘ringni tashlolmasding!

Ovchilarning baqiriq-chaqiriqlari kuchayib, oxiri yeng shimara boshlashibdi, agar Irjik aralashmasa, mushtlashishlari ham hech gap emas ekan.

-Bas qilinglar tortishuvni! — debdi Irjik baliqchilarga. — Baliqni menga sotib, pulni o‘rtada bo‘lishib olinglar. Qarabsizlarki, olam guliston.

Irjik qiroldan yo‘lga olgan bari pulini baliqchilarga beribdi-da, oltin baliqni dengizga uloqtiribdi. Baliq dumini likillatib, suv ichidan boshini chiqarib, bunday debdi:

-Yaxshilikka — yaxshilik qaytadi. Ko‘magim zarur bo‘lib qolganida chorlasang, darhol yetib kelaman.

Irjik nafasini rostlagani sohilga o‘tiribdi. Baliqchilar unga qarab gap qotishibdi:

-Yo‘l bo‘lsin, yaxshi yigit?

-Keksa qirolimga qayliq axtarib ketyapman.

Olampanoh xotinlikka oltin sochli sohibjamolni topib kelishimni amr etdi. Qayerdan topdim endi unday ayolni?

Baliqchilar bir-biriga qarab qo‘yishgach, qum ustida o‘tirgan Irjikning yoniga asta cho‘kishibdi.

-U holda, — deyishdi ular, — sen bizlarni kelishtirib qo‘yaning evaziga yaxshilik qilmoq-chimiz. Baholi qudrat. Tilla sochli sohibjamol dunyoda yakka-yu yagona. U ham bo‘lsa qirolimizning qizi. Dengizdagagi huv anavi orol, oroldagi billur saroyni ko‘ryapsanmi? Tilla sochli sohibjamol naq o‘sha saroyda yashaydi. U har kuni tongda soch taraydi. O‘sha paytlari dengiz uzra oltin shafaq yolqinlanib uning ta’sirida hujralarda uxlab yotgan bizlar ham uyg‘onib ketib, ovga chiqish payti bo‘lganini bilamiz. Seni o‘sha orolga o‘tkazib qo‘yishimiz mumkin. Lekin shunisi bor, malikani tanib olish qiyin.

-Nega? — hayron bo‘libdi Irjik.

-Shuning uchunki, qirolning o‘n ikkita qizi bor, oltin sochligi esa bittagina. O‘n ikki qizning bari bir xil kiyinishadi. Boshlaridagi ro‘mollari ham bir xil. Ro‘mollar ostidagi sochni ko‘rishning iloji yo‘q. Xullas, oldingda mushkul vazifa turibdi, Irjik.

Baliqchilar Irjikni orolga o‘tkazib qo‘yishibdi. Irjik to‘ppa-to‘g‘ri billur saroyga boribdi-da, qirol huzuriga kirib ta’zim bajo keltirgach, orolga nima maqsadda kelganini aytibdi.

-Juda soz! — debdi qiro. — Men ziqna odam emasman. Qizimni qiroingga berishim mumkin. Lekin bir shartim bor, uch kun mobaynida mening topshiriqlarimni ham bajarishingga to‘g‘ri keladi. Shunga rozmisan?

-Roziman! — debdi Irjik.

-Unda, uxbab nafasingni rostlab ol. Mening topshiriqlarim ancha murakkab. Yengil-yelpi bajarolmaysan.

Irjik miriqib uxbabdi. Derazadan tun bo‘yi. dengiz shabadasi esib, to‘lqin chayqalibdi, goho Irjikning to‘shagiga tomchilar ham sachrab turibdi.

Irjik ertalab uyg‘onib, qiro qarorgohiga kelibdi. Qirol birpas o‘ylanib turib, topshirig‘ini aytibdi:

-Birinchi topshiriq bunday. Tilla sochli qizim bo‘ynida marvarid shodasi taqib yurardi, shoda ipi uzilib, marvarid donalarining bari qalin ko‘kat orasiga to‘kildi. O‘sha donalarni bekam-u ko‘st terib ber.

Irjik marvarid donalari to‘kilgan o‘tloqqa yo‘l olibdi. U yerda beldan keladigan o‘tlar o‘sib yotarkan. O‘tlar shunchalik qalin ekanki, hatto tagi ko‘rinmas ekan.

-Eh, — deb afsuslanibdi Irjik, — haligi chumolilarim bo‘lganda zap yordamlari tegardi-da!

Shu payt ko‘ktalar orasida sharpa eshitilib, Irjikning tevaragini mayda jonivorlar qurshab olibdi.

-Biz shu yerdamiz! Biz shu yerdamiz! Nima yordam kerak! Marvaridlarni terib beraylikmi? Hozir bajaramiz-da!

Chumolilar u yoqdan bu yoqqa zir yugurib, mo‘ylabchalarini o‘ynatgancha Irjikning oyoqlari ostiga ketma-ket marvarid donalarini keltirib tashlay boshlabdi. Irjik marvaridlarni bazo‘r ipga tizib ulgurarkan. Shu tariqa u shodani but qilib qiro qarorgohiga eltidbi.

Qirol marvarid donalarini uzoq vaqt sanabdi, adashib ketib, qayta sanab chiqibdi.

-Hammasi but! Yaxshi, ertaga senga bundan og‘irroq vazifa topshiraman.

Irjik ertasi tag‘in qiro huzuriga kelibdi. Hukmron unga mug‘ombirona qarab qo‘yib, debdi:

-Falokatni qara-ya! Oltin sochli qizim dengizda cho‘milayotib tilla uzugini tushirib qo‘yibdi. Bir kun muhlat ichida o‘sha uzukni topishing kerak.

Irjik dengiz qirg‘og‘iga borib o‘tiribdi-da, o‘zidan xafa bo‘lib ketibdi. Qarshisida iliq suvli, musaffo, tubsiz dengiz yastanib yotarkan. Shunday ulkan dengizdan kichkinagina uzukni topib bo‘larmidi?!

-Eh, — debdi Irjik, — hozir yonimda oltin baliq bo‘lganida, albatta kunimga yarardi!

Shu payt dengiz tagida nimadir yarq etibdi-yu, huv yuziga oltin baliq chiqib kelibdi.

-Siqilma! — debdi baliq Irjikka. — Boyagina qanotida tilla uzuk olib ketayotgan cho‘rtanni ko‘ruvdim. Hozir keltiraman uni.

Irjikning ancha vaqt kutishiga to‘g‘ri kelibdi. Nihoyat, suv qa‘ridan tilla uzukli oltin baliq suzib ohiqibdi.

Irjik uzukni olib tashakkur aytibdi-da, saroy sari ravona bo‘libdi.

-Juda soz, — debdi qiro, — ancha uddaburon odamga o‘xshaysan. Ertaga oxirgi topshiriqlarini bajargani kel.

Oxirgi topshiriq eng og‘ir topshiriq ekan: qiro uchun ham jonli, ham jonsiz suv keltirish talab qilinarkan. Xo‘sh, qayerdan olish mumkin bunday suvni? Irjik garangsigan ko‘yi boshi oqqan tomonga ketib borarkan, cheksiz o‘rmon yoniga yetgach, o‘ylanib qolibdi.

«Hozir yonimda qarg‘a poloponlari bo‘lsa bormi, albatta ular...»

Irjikning o‘yi oxiriga yetmayoq boshi uzra qanotlar sharpasi, qag‘illagan tovush eshitilibdi. Ha, tanish qarg‘a bolalari yetib kelgan ekan.

Irjik ularga o‘z dardini bayon etibdi.

Qarg‘a bolalari qaytib ketishibdi-da, ancha vaqtgacha daraklari bo‘lmabdi, nihoyat ular yana

osmonda paydo bo‘lishibdi. Qarg‘achalar tumshuqlaridagi ikki idishda jonli va jonsiz suv keltirishgan ekan.

-Qag‘-qag‘-qag‘, olgin-da, xursand bo‘l! Qag‘- qag‘-qag‘!

Irjik jonli va jonsiz suvli idishlarni ko‘tarib saroya jo‘nabdi. Yo‘lda u to‘xtashga majbur bo‘libdi. Chunki qora o‘rgimchak ikki daraxt orasiga ipak to‘r to‘qigan bo‘lib, o‘zi to‘rga ilingan bechora pashshaning qonini so‘rayotgan ekan. Irjik o‘rgimchakka jonsiz suvdan sachratibdi. O‘rgimchak shu zahoti til tortmay o‘lib, yerga qulabdi. Keyin pashshaga jonli suvdan purkagan ekan, pashshaga jon kirib, qanotchalarini silkitibdi-da, g‘ing‘illab o‘rgimchak to‘ridan chiqib uchib ketibdi. Jonivor uchib ketayotib Irjikka qarab shunday dermish:

-Menga qilgan yaxshililing o‘zingga o‘n chandon bo‘lib qaytadi. Senga Zlatovlaska — zarkokil qizni tanib olishingda ko‘maklashaman.

Irjik qiroq qarorgohiga jonli va jonsiz suv bilan kirib kelibdi. Qirol hayratdan qotib qolibdi, ancha vaqt ko‘zlariga ishonmabdi, ammo jonsiz suvni xonadondagi sichqonga, jonli suvni esa qurigan gulga purkab ko‘rib, ko‘ngli o‘rniga tushib, boshi osmonga yetibdi. Shundan so‘ng qirol Irjikni qo‘lidan ushlab, uni tilla shiftli xonaga yetaklab kelibdi. Xona o‘rtasida dumaloq billur stol bo‘lib, stol tevaragidagi billur o‘rindiqlarda o‘n ikkita sohibjamol o‘tirishgan ekan. Ular shu qadar bir-biriga o‘xshar ekanki, Irjik qo‘l siltab ko‘zlarini yerga tikibdi: bulardan qaysi biri Zarkokil ekanligini qanday bilsin! Sohibjamollarning hammasi bir xil uzun ko‘ylak kiyishgan, boshlarida ham bir xil oppoq ro‘mol. Ro‘mol ostidan ularning sochlari ko‘rimmas ekan.

-Qani, tanla, — debdi qirol. — Agar topsang, omading! Topolmasang qanday tanho kelgan bo‘lsang, o‘shanday tanho ketasan.

Irjik bosh ko‘tarib qizlarga qaragan ekan, nogoh qulog‘i ostida nimadir g‘o‘ng-g‘o‘ng ovoz chiqaribdi.

-G‘o‘ng-g‘o‘ng, stol tevaragidan yur. Men nenga ko‘rsatib yuboraman.

Irjik boshi uzra bir kichkina pashsha uchib yurganini ko‘ribdi. Yigit stol tevaragida bir-bir odimlay boshlabdi, qirolichalar esa ko‘zlarini yerga tikib o‘tirishar ekan. Hamma qizlarning yuzi qirmizi tus olgan ekan shu tobda. Pashsha g‘o‘ng‘illashni to‘xtatmasdan:

-U emas! U emas! Manavinisi o‘sha — zarkokili, — debdi.

Irjik yurishdan to‘xtab, o‘zini ikkilanganday qilib ko‘rsatib biroz taraddudlanibdi-da:

-Zarkokil qirolicha mana shu! — debdi dangaliga.

-Omadli ekansan! — qichqirib yuboribdi qiroq ham.

Qirolicha o‘tirgan joyidan shartta turib, boshidan oppoq ro‘molni olgan ekan, uning oltin sochlari kaftlarini to‘ldiribdi. Xona ichi zarrin shu’ladan tovlanib ketibdi, go‘yo oftob bor nurini qirolichaning kokillariga hadya etganday tuyulibdi.

Malika Irjikka tikilib qarabdi-yu, darhol nigohini undan olib qochibdi, u umrida bundayin suxsur, xushqomat yigitni ko‘rmagan ekan. Qirolichaning ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketibdi-yu, ammo otasininig gapini ikki qilolmabdi. Iloji qancha, keksa, jahldor qiroqning xotini bo‘lishiga to‘g‘ri keladi!

Irjik malikani olib qiroq huzuriga jo‘nabdi. Yigit yo‘l bo‘yi qizni ehtiyyotlabdi, uning oti ortda qolmasligi, kiftlariga biror tomchi yomg‘ir tommasligi uchun qo‘lidan kelgan chorani ko‘ribdi. Yo‘l bosish qanchalik ko‘ngilsiz bo‘lmasin, Irjik oltinsoch malikani sevib qolgan ekan, lekin qizga izhori dil qilishga jur‘at qilolmaskan.

Keksa, ezma qiroq sohibjamol qizni ko‘rib xursandligidan hiringlab qo‘yibdi va darhol to‘y taraddudi boshlab yuborishni amr etibdi. Keyin Irjikka yuzlanib bunday debdi:

- Gapimga kirmaganing uchun seni daraxtga osmoqchi, jasadning quzg‘unlarga yem qilmoqchi edim. Biroq menga qayliq topib kelganining uchun qirollik iltifotidan bebahra qoldirmayman. Seni osmay qo‘ya qolay, kallangni kesdiraman-da, tantanali dafn etishlariga farmon beraman.

Subhidam chog‘i jallod Irjikning kallasini kunda ustiga qo‘yib, tanasidan judo qilibdi. Faryod chekib, ko‘z yoshi qilgan oltin soch sohibjamol qiroldan marhumning kallasi bilan jasadini so‘rab olibdi. Qirol garchi qovog‘ini uyib olgan bo‘lsa ham, sohibjamolning iltimosini rad etolmabdi.

Zarkokil kallani bo‘yindagi joyiga qo‘yib, jonli suvdan purkagan ekan, kalla go‘yo tanadan judo etilmaganday, darhol o‘z o‘rnida bo‘lib qolibdi. Ikkinci bor suv purkaganda Irjik sakrab o‘rnidan turibdi. U avvalgidan ham yashargan, qatldan oldingidan ham xushbichim bo‘lib ketgandi. Yigit hayron bo‘lib malikaga murojaat etibdi:

- Shunchalik qattiq uqlab qoldimmi-a?
- Agar men qutqarmasam, abadiy uyg‘onmasding, azizim, — debdi Zarkokil.

Qirol Irjikni ko‘rib, hang-mang bo‘lib qolibdi: qiziq, qanday tirildi, buning ustiga, xushbichimroq ham bo‘libdi-ku! Qirol ancha mug‘ombir odam ekan, u hozirgi ahvoldan ham o‘z manfaati yo‘lida foy- dalanmoqchi bo‘libdi. Darhol jallodni chaqirib buyuribdi:

- Kallamni tanamdan judo et! Keyin Zarkokil menga sirli suvdan purkasin. Bundan ko‘ra xushbichimroq bo‘lib qayta tirlaman.

Jallod keksa qirolning kallasini bajonidil tanidan judo etibdi. Ammo hukmdorga qayta tirlish nasib etmabdi. Jonli suvning barini quyishsa ham foydasi bo‘lmabdi. Chamasi, qiro umrida ko‘p zolimlik qilgan ekan-da. Hech narsa uni qayta tiriltirishga qodir emas ekan. Uni hech qanday qayg‘u-motamsiz, aksincha, karnay-surnay chalib dafn etishibdi. Mamlakat oqil va odil podshoga muhtoj bo‘lgani uchun, xalq Irjikni hukmron qilib saylabdi.

Manmanga zavol, kamtarga kamol, deganlari shu bo‘ladi. Irjik Zarkokil qizga uylanibdi, ikkovlon baxtiyorlik bilan umrguzaronlik qilibdi.

Qissadan hissa shukim, har kim ekkanini o‘radi.

**“Oltin shahzoda” kitobidan**